

O‘QUVCHILARNI ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT MUSOBOQALARINING AHAMIYATI

Dustov Jonibek Amriddinovich

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi

E-mail: dostovjonibek@5gmail.com

Annotatsiya. O‘quvchilarni estetik tafakkurini rivojlantirishda sport musoboqalarining ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sport,estetika, vosita, kasbiy, sifat, rivojlantirish, musobaqa, texnika, trxnologiya.

Аннотация. Приводится информация о значении спортивных соревнований в развитии эстетического мышления учащихся.

Ключевые слова: спорт, эстетика, средство, профессионализм, качество, развитие, соревнование, техника, технология.

Abstract. Information is provided on the importance of sports competitions in the development of students' aesthetic thinking.

Key words: sports, aesthetics, means, professionalism, quality, development, competition, technique, technology.

Bugungi kunda ijtimoiy borliq, institutitsional yangilanishlar va modernizatsiyalash inson organizmidan o‘zgarishlarga moslashib yashashni taqozo qilmoqda. Jismonan baquvvat va chaqqon organizm ijtimoiy yukka, o‘zgarishlar dinamikasiga moslashishi mumkin, aks holda stress va depressiya real voqelikka aylanadi, inson bu holatlarda uzoq qololmaydi. Maxsus tadqiqotlar ko‘rsatadiki, stress va depressiya holatlari kishilar bilan ishlovchi sohalarda, ayniqsa o‘qituvchilar, rahbarlar, boshqaruvdagi kadrlar orasida keng uchraydi¹.

Intellektual faoliyat bilan shug‘ullanish inson organizmida psixologik zo‘riqlashlarni keltirib chiqaradi, gipodinamiyani avj oldiradi. Texnika va texnologiyalar asri bo‘lgan hozirgi davr intellektual mehnatni qo‘llab-quvvatlar ekan,

shu bilan birga ruhiy zo‘riqishdek stress va depressiyaga muhtalolikni avj oldirmoqda. Bu salbiy hodisalarning fojialarni keltirib chiqarmasligining eng samarali yo‘li mehnat turini almashtirib turish, ya’ni aqliy mehnatdan jismoniy mashqlarga, jismoniy mehnatdan aqliy izlanishlarga o‘tishdir. Intellektual rivojlanish bizning realligimiz, demak, ushbu reallikni jismoniy madaniyat bilan boyitish salomat yashashimiz va uzoq umr ko‘rishimiz kafolatidir.

Milliy o‘yinlarga bolalarning chillak, varak uchirish, kim o‘zdi, kuch sinashish, bekinmashoq, oq terakmi ko‘k terak, besh tosh, arg‘imchoq uchish kabilar ham kiradi. Ular bolalarda chaqqonlikni tarbiyalaydi, mushaklarini chiniqtiradi, musobaqalarda qatnashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Sport ham o‘z jozibadorligi bilan jamiyat estetik ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. “Sport bu faqatgina biologik funksiya emas, balki estetik tafakkur asosida tahlil qilinadigan madaniy hodisadir. Sport insoniyat madaniy sivilizatsiyasi davomida o‘z konsepsiyasini yaratib, jamiyatning muhim birlamchi faoliyati bo‘lib ulgurdi”.

Qiziqarli tarixiy sport materiallari, sport hayotidan yorqin holatlar, sport mavzusidagi taassurot qoldiradigan san‘at asarlari, voqealarni qamrab oluvchi kaleydoskop. Ushbu mavzudagi qiziqarli materiallar o‘smirlarning sport estetikasiga bo‘lgan qiziqishning manbai bo‘lishi mumkin.

“Jismoniy tarbiya darslari hamda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘smirlarni estetik tarbiyalashning muhim shartlaridan biri ularda sport estetikasiga qiziqishni ehtiyoj darajasigacha ko‘tarishdir. Shu bilan birga o‘smirlar hayoti va faoliyati - ning barcha tomonlarini qamrab olish uchun ma’naviy - estetik va albatta jismoniy qobiliyatni rivojlantirish imkoniyatlari berilishi lozim. Zero, jismoniy tarbiya vositasida estetik tarbiyalash bir yoqlamalikni emas, balki barkamollikni shakllantirishga qaratilgan barcha omillarni ishga solishni nazarda tutadi.

Sport estetikasiga qiziqishni tarkib toptirish bir qator hissiy omillar - hissiy fon, hissiy muhit, hissiy bilish, materialni o‘smirlar shaxsining hissiy - bilish sohasiga ta’sir etishini, birinchi navbatda, ijtimoiy- shaxsni yo‘naltirilganligining hissiy motivatsion ta’sir etishini talab etadi.

Sport estetikasiga bo‘lgan qiziqish sportning istalgan turida sport estetikasini idrok etish va baholash, estetik ifoda elementlari bo‘yicha mashqlar, harakatlar bajarish, egallangan ko‘nikma va malakalrni qo‘llash bilan faollashtiriladi. Bu yerda ishtiyiq muayyan psixologik-pedagogik ta’sir ostida paydo bo‘lgan qiziqish sifatida faollashadi va barqarorlashadi.

Qiziqishni ma’no, psixologik va ijtimoiy tushuncha sifatida ko‘rib chiqish, uning

xususiyatlari, mazmuni va tavsifi, turlari hamda funkcionalligini o‘rganish asosida sport estetikasiga nisbatan tavsifni shakllantiramiz”.

Bu sportga yaxlit holda, jumladan, estetik qiziqish ob’ektni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga, o‘zini namoyon etishga, qaror toptirishga bundan kuvonch va rohat olishga (hissiy - ijtimoiy o‘zini namoyon etish) bo‘lgan tashkiliy - irodaviy intilishdir.

Hali jismoniy mashg‘ulotlarda, tanlagan sport turlarida egallagan mahorati sport bilimlar, ko‘nikma va malakalarni yanada oshirishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyatning mavjudligi ham shaxsni o‘zining tashqi go‘zalligini oshirishga bo‘lgan ongli tarzda kechuvchi faoliyat turi sifatida sport estetikasining tasnifi tariqasida talqin etishlari mumkin.

Ana shunday talqindan kelib chiqqan holda sport estetikasiga bo‘lgan qiziqishning asosiy ko‘rsatkichlari aniklandi:

hissiy-ijobiy, ijtimoiy — shaxsiy sabab;

topa olish - bilish;

baholovchi- yo‘naltirilgan;

ehtiyojli faoliyatli.

Sport estetikasiga bo‘lgan bunday qiziqish - o‘smirlarning nafaqat jismoniy madaniyati, balki umumiy madaniyatini ham rivojlantirish uchun muhimdir. Sport estetikasiga qiziqish ko‘rsatilgan ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, usullarini qarab chikish, o‘smirlarni mashg‘ulotlar, lavhalar, qiziqish va qobiliyatga oid topshiriklarning variatlari bilan tanishtirish va faollashtirishdan iborat. Bunda aniq mazmunli, axborotlarga boy bo‘lgan ishontiruvchi suhbat hamda esda qoladigan ko‘rgazmali rasmi (illustratsiyali) material muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat a’zolarini sportga bo‘lgan qiziqish va unga hissiy munosabatlaridan kelib chiqib, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin: birinchi toifadagilar, shaxsiy manfaat va ehtiyojlari bo‘yicha sport bilan bog‘liq bo‘lgan tomoshabinlar. Bunday insonlar o‘yindan zavqlanish uchun kelmaydilar, balki musobaqalarning rasmiy jihatiga o‘z e’tiborlarini qaratadilar. Ular o‘z ixtiyorlari bilan kelmaydilar. Masalan, sport o‘yinlaridagi nazorat-xavfsizlik xizmati xodimlari. Ikkinchi toifadagilar esa, tashrif buyurgan tomoshabinlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Ularning sport natijalariga bo‘lgan qiziqishlari musobaqa tomon ixtiyoriy yetaklaydi. Uchinchi toifadagi tomoshabinlar sportning go‘zalligini anglab, estetik mohiyatini his qiladilar, undan ruhiy quvvat olib, ma’naviy ehtiyojlarini qondiradilar.

Sport musobaqalari turli ijtimoiy qatlam va yoshdagi insonlarni birlashtiruvchi ajoyib estetik hodisadir. Sport tomoshabinlar uchun maxsus strategiya va qoidalarga

muvofiq amalga oshiriladigan faol harakatlar jamlanmasini o‘z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, sport tomoshasidagi harakatlar o‘z jozibadorligi bilan bir-biridan ajralib, farqlanib turadi. J.Magnan aytganidek, sport o‘yinlari xotimasi, o‘ziga ma’lum bo‘lmagan dramani kuzatib turgan tomoshabinlar ko‘z o‘ngida hal qilinadi. Sport musobaqalari natijalarining oldindan nomalumligi va qanday hisob bilan tugashini aytish imkonsizligi ham tomoshabinlar qalbida hayajonli hissiyotlarni jo‘shqinlantiradi. Sport jozibasi muhim darajadagi noaniqlik natijasidan iborat. Bu noaniqlik insonlarda ziddiyatli vaziyatlarga nafaqat o‘yinchi, balki muxlis sifatida ham qatnashishlariga ishtiyoq uyg‘otadi. Faol harakat natijalarining oldindan ma’lumligi translyatsiya faoliyatining jozibadorligini yo‘qotadi. Sport musobaqalarini bevosita guvohi bo‘lib, kuzatish sport estetikasini anglashga olib keladi.

Sport o‘yinlari boshqa tomosha turlaridan nafaqat o‘z estetik jozibadorligi bilan qolaversa, kommunikativlik bajarishi bilan ham ajralib turadi. Sport o‘yinlari - tomoshabinlar o‘rtasidagi munosabat, aloqaviy bog‘liqlik, ya’ni, muloqot vazifasi malum. Sport faoliyati sohasidagi insonlarning axloqiy-madaniy muloqoti aksariyat hollarda musobaqalar jarayonida, ularni tomosha qilish davomida sodir bo‘ladi. Sportning tarixiy rivojlanishi davomida insonlarning muloqotiga “tashqi (madaniy mentalitet, ijtimoiy munosabatlar) va ichki (milliy an’analar, umumiy til birligi) omillarning roli nihoyatda muhim”² bo‘lib kelgan.

Ma’lum bir jamoa yoki sportchiga muxlislik qilayotgan insonlar, yo g‘alaba quvonchini, yoinki mag‘lubiyat hamdardlagini birgalikda tahlil qiladilar. Ularni birlashtirib turuvchi umumiylik mavjud va bahsli suhbatlar mavzusi ham aniq bo‘ladi. Bundan tashqari sportchilarning o‘zaro va ular bilan tomoshabinlarning munosabatlari ham sportning kommunikativ vazifasiga taaluqli. Sport turlari, mexanizmlari, qadriyatlariga ko‘ra mikro va makro guruhlar shakllanadi hamda ular bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar. Bellashish, raqobat va qarama-qarshiliklarsiz sportni tasavvur qilolmaymiz. Ammo sportdagi raqobat o‘zining sof ko‘rinishi bilan insonlarni birlashtirib, muloqotga kirishini ta’minlaydigan eng samarali vositalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu jarayon sport paydo bo‘lishining dastlabki bosqichlaridayoq namoyon bo‘lgan.

Qadimgi Yunon shahar-davlatlari Olimpiya o‘yinlari vaqtida hatto urushlarni ham to‘xtatganlar. Sportchilar va Olimpiya o‘yinlari tomoshabinlari esa dushman davlat hududidan bemalol o‘tib, musobaqaga borishlari mumkin bo‘lgan. Dushman

davlat fuqarolari yonma-yon turib musobaqalarni kuzatishgan, g‘alaba bilan bir-birlarini qutlaganliklaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki sportning kommunikativlik vazifasi tarixdan muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Sport musobaqalari davomida qatnashchilarda kuzatiladigan gedonistik tuyg‘ular bilan estetik quvonch (g‘alaba quvonchi, takrorlanmas natijaning guvohi bo‘lish)ni farqlash lozim. “Ma’lumki, qadimgi yunon olimlari Aristin va Elinur tomonidan asos solingan gedonizm (yunoncha nedone-lazzatlanish) lazzatlanib umr kechirish inson hayotining asl mazmunini tashkil etishi lozim, degan qarashga asos bo‘lgan g‘oya va turmush tarziga intilishni ifodalaydi. Gedonizmni mutlaqlashtirish inson hayotida moddiy boyliklar rolini oshirib, ma’naviy qadriyatlarga e’tiborni susaytirishga olib keldi.” Sport o‘yinlaridagi gedonistik xohish-istak yoshlarni ma’naviy-estetik tarbiyalashda o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki sport estetikasidan haqiqiy zavqni his qilish uchun inson ishtirokchi bo‘ladimi, tomoshabin bo‘ladimi “manfaatsiz maqsadga muvofiq” munosabatda bo‘lishi lozim.

Sportning jozibadorligini his qilish, undagi vazifalarni bajarishning faol-ijodiy tabiati bilan bog‘liq. “Ma’lumki, estetik zavq bag‘ishlaydigan mumtoz tomosha san’ati jamiyat ma’naviy hayotiga kulguli, axloqiy-intellektual obrazlari orqali ta’sir ko‘rsatadi. Lekin qadimiyligiga qaramay bunday tomoshalarning qatnashchilari ham, muxlislari ham sport musobaqalarichalik emas.” Sport jamiyat kayfiyatiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsata oladigan, xatti-harakatlari bilan tomoshabinlarni hayratda qoldiradigan madaniy hodisadir. Jismoniy, ruhiy, ma’naviy, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirib, sport musobaqalarida qatnashayotgan ishtirokchi o‘z empatiyasini o‘ta samarali va yuqori darajada namoyon qiladi.

Sport o‘yinlarida qarama-qarshi ikkala tomonning qanchalik, tezkor, shiddatli harakat qilishlaridan qat’iy nazar, natija doimo “Sport qonuni” asosida belgilanadi. Sport qonuni – “eng kuchlilar g‘alaba qozonadi, ojizlar mag‘lub bo‘ladi.” Bu o‘rinda nafaqat jismoniy kuch, balki ma’naviy-estetik quvvat garmoniyasi ham nazarda tutilgan. Ammo sportchining mavjud jismoniy va ma’naviy qobiliyatini hisobga olmasdan turilgan rejalar samara bermaydi. Yani teskari natija ko‘rsatib xunuklikka aylanadi. Sport musobaqalarida harakatlar rejasining umumiy sxemasi mavjud: bu “kuzatish, dushmanni zarasizlantirish va hujumga o‘tish.” Ushbu sxema asosida bo‘ladiga to‘qnashuvlar ajoyib sport o‘yinlarini yaratadi va muxlislar olqishiga sabab bo‘ladi. Bu sxemaning har bir elementi o‘ziga xos mantiqiy tuzilishga va makonzamondagi harakatlar dinamikasiga bog‘liq. Sxema umumiy xarakter kasb etsada, har bir sport turi bo‘yicha farqlanadi.

Zamonaviy sport turlarining xilma-xilligi, ularga bo‘lgan ommaviy qiziqishning kuchayib borishi musobaqalarni “dasturlash” va bunda tomoshabinlar ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Buning uchun yetarlicha bilim va malaka talab qilinadi.

Lekin sport o‘yinlari esa teatr emas. Yani, sport inson hayotini aks ettirmaydi, balki u hayotning o‘zidir. Sport o‘yinlarini teatr tomoshalaridan faqr qiluvchi yana bir tomoni, ikkalasini ham bevosita kuzatuvchi tomoshabinlardin. Tomoshabinsiz teatr sahna ko‘rinishlari bemanilikdir. Teatrda bevosita turib kuzatayotgan tomoshabinlar uchun sahna ko‘rinishlari namoyish qilinadi. Ularsiz tomoshalar qoldiriladi. Sport o‘yinlari o‘tkazilayotgan vaqtda tomoshabinlarning bo‘lish-bo‘lmasligi ikkinchi darajali. Buni biz 2020-2021-yillarda ko‘pgina davlatlarda belgilangan qat’iy karantin (COVID-19) paytida, tomoshabinlarsiz o‘tkazilgan sport musobaqalari misolida guvohi bo‘ldik.

Sport o‘yinlari va tomoshalarini tashkil etishda ham asosiy e’tibor musobaqalarni o‘tkazish uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga, keyingi navbatda esa kuzatuvchilar(tomoshabinlar) hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab yaratiladi. Teatrda buni teskarisi, asosiy e’tibor tomoshabinlarga va ularning manfaatlariga qaratiladi.

Bolalar rivojlanishini birinchi bo‘lib o‘yin faoliyati bilan boshlaydi. O‘yin faoliyatida milliy o‘yinchoqlar ta’lim-tarbiya vositasi sifatida nihoyatda keng qo‘llaniladi. Xalq azaldan bola tarbiyasida turli-tuman o‘yinchoqlardan, ularning ijobiy tomonlaridan unumli foydalanib kelgan. Shuning uchun ham xalq manbalarida milliy o‘yinlarni amalga oshirish uchun xalq o‘yinchoqlariga keng o‘rin berilgan. Oilada ot-onalar, mahallalarda mahalliy hunarmandlar loy, yog‘och, jun, matolar va boshqa materiallardan bolalar uchun turli xil chiroyli, ularni qiziqtiradigan bezaklar bilan bezatilgan, bolalarni tezda o‘ziga rom qiluvchi o‘yinchoqlar yasaganlar. O‘yinchoqlar yashashning takomillashib borishi, bir necha avlodlarning ijodiy faoliyati natijasida o‘ziga xos, bejirim, takrorlanmas o‘zbek milliy o‘yinchoqlari vujudga kelgan. Bunday o‘yinchoqlar qatoriga oilalarda bolalarga yasab beriladigan turli o‘zbek milliy libosidagi qo‘g‘irchoqlar, ertaklarning qahramonlari, mahalliy uy hayvonlari, uy-ro‘zg‘or va maishiy xizmat buyumlari kabilarni ta’kidlash mumkin.

Xullas insonlarning jismonan sog‘lom bo‘lishi o‘zining ma’lum maqsad asosida olib borayotgan harakatlari, tabiat bag‘rida yoki chiroyli sport zallari va maydonlarida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi – bularning barchasi kishidagi estetik his-tuyg‘ularni, ideallarni, qarashlarni, didini tarbiyalaydi. Bu narsaga ko‘proq o‘quvchilar e’tibor beradi. Chunki o‘quvchilar jismoniy tarbiya darslarida o‘zining qiziquvchan, intiluvchan xislatlari orqali juda chiroyli jismoniy mashqlarni bajaradilar va undan

zavq-shavqqa to‘ladilar. O‘qituvchi bolalarni faqatgina jismonan tarbiyalab qolmay, balki o‘quvchini estetik jihatdan ham tarbiyalaydi. Jismoniy tarbiyaning mohiyatini chuqur anglab yetgan kishi faqat o‘zining sog‘lom bo‘lishinigina emas, balki doimo xushchaqchaq, ochiqko‘ngilli, xushmuomalali, chiroyli, go‘zal bo‘lib yurishini ham ta’minlaydi. Sport insonni jismoniy chiniqtiradi, tarbiyalaydi, uni go‘zallikka va ezgulikka chorlaydi. Sportchilar ajoyib mashqlarni, harakatlarni bajarib muxlislarda katta estetik zavq-shavq uyg‘otadilar, ularga quvonch bag‘ishlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 11.04.2022 yildagi PQ-201-son. “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish” chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.12.2018 yildagi PQ-4063-son. “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish” chora-tadbirlari to‘g‘risida. Нурматова М. Шахс камолотида ахлоқий ва эстетик қадриятлар уйғунлиги. –Т.: Университет, 2009. – 128 б.
3. Самадов А., Эргашева М.Х. Шахс эстетик идеали: шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. –Т.: Zilol buloq, 306 б.
4. Файбуллаев О. Эстетик маданият. –Т.: Наврўз, 2020. – 310 б.
5. Mamarasulov U. o‘zbekistonda sport estetikasini rivojlantirishning falsafiy masalalari. Falsafa fanlar doktori (PhD) dissertatsiyasi dissertatsiyasi avtoreferati 2024. 46 б.
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/12/15/reading/>